

BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIGA OID STATISTIK MA'LUMOTLAR TO'PLASH USLUBIYATI

Maxmudova Dilrabo Mirzaayevna

Buxoro shahar 1-son texnikumi maxsus fan o'qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biznesning nazariy va amaliy jihatlari, uning O'zbekiston iqtisodiyotida rivojlanish yo'llari va strategiyasini tanlash, kuzatish usullari orqali statistik tahlillar, statistik ma'lumotlarni yig'ish, tasniflash, jadvallar tuzish, shuningdek, biznesni rivojlantirish ko'rsatkichlarini, jumladan, iqtisodiyotni shakllantirishda xususiy sektorni takomillashtirish yo'llari, shuningdek, O'zbekistonda biznesni rivojlantirish istiqbollari, dinamik o'zgarishlarni, taqqoslash va prognozlash ma'lumotlarini taqdim etishda tez-tez foydalaniladigan diagramma va grafiklar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Biznes, raqobatbardoshlik, mahsuldorlik, innovatsiya, mikrofirma, xususiylashtirish, oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes, ma'lumotlarning statistik tahlili, tahliliy usul, prognoz.*

KIRISH

Biznesni boshqarishda zarur statistik axborotlar tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan biri, sababi, statistik axborotlar tizimi bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan va u nafaqat hukumat hamda vazirlik va idoralarni, balki jamoatchilikni, biznes subyektlarini va aholini mamlakat yoki muayyan bir hududning iqtisodiy, demografik, ijtimoiy va ekologik holati to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Zamonaviy statistik axborotlar tizimini shakllantirishni biznes subyektlariga tegishli ma'lumotlarni to'plashdan, ya'ni statistik kuzatishdan boshlash lozim. Bunda statistik axborotlarning asosiy xususiyatlariga e'tibor berish lozim

Biznes subyektlarida zamonaviy statistik axborotlar tizimini shakllantirishda muhim qoida to'plam birliklarini qamrab olish masalasi mavjud bo'lib, uni ham makon, ham zamon chegarasida to'g'ri hal etish maqsadga muvofiq.

Biznes subyektlarida statistik ma'lumotlarning manbalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Respondentlar tomonidan taqdim etiladigan birlamchi statistik ma'lumotlar.
2. So'rovnoma va xatlovlar orqali olinadigan ma'lumotlar.
3. Davlat organlarining axborot tizimlari.
4. Boshqaruv ma'lumotlari.
5. Bank va moliya statistikasi ma'lumotlari.

6. Boshqa mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar statistika organlarining statistik ma'lumotlari.

Mamlakat darajasida biznes sohasidagi statistikaning shakllantirish maqsadida foydalaniladigan usullar jarayondagi barcha bosqichlarni - statistik jarayonni ishlab chiqishdan tortib, biznes to'plamlardan tanlanma ko'rsatkichlarni aniqlab olish, ya'ni ma'lumotlarni umumlashtirishgacha bo'lgan bosqichni aks ettiradi. Statistik kuzatuv jarayonining tarkibi yangi bir kuzatuvni ishlab chiqish, kuzatuvga o'zgartirishlar yoki davomli o'zgartirishlar kiritish kabilardan iborat hisoblanadi.

Statistik jarayonlarni ishlab chiqish o'z ichiga quyidagi ikkita muhim bosqichni oladi:

- kuzatuv usulini tanlab olish, misol uchun tanlama va baholash, ma'lumotlarni to'plash va saralash kabilar.

- statistik ma'lumotlarni to'plash jarayonidagi bosqichlarga resurslarni ajratish.

Biznes subyektlari faoliyatini tanlab olishda asoslash, rejali shakllantirish, ma'lumotlar jamlanmasini tuzish, olingan statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va yakuniy xulosalar chiqarish talab etiladi.

Tanlanma kuzatishda korxonalar va tashkilotlar haqidagi statistik ma'lumotlar biznes subyektlarining yagona davlat registri hamda 1-narx (kv) «kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan sanoat tovarlari; 1-savdo (JSh) "savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuv so'rovnomasi"; 1-bozor "qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuv so'rovnomasi"; 1-bozor (chorva) "chorva mollari va parrandalarni sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuv so'rovnomasi"; 1-sanoat (JSh) (tanlama kuzatuv anketasi) "ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuv anketasi"; 1-DXK "yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaligi faoliyatining tanlama kuzatuv so'rovnomasi"; 2-DXK "yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligi faoliyatining tanlama kuzatuv so'rovnomasi"; 1-xizmat (JSh) "aholiga xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuv so'rovnomasi"; 2-fan (tanlama kuzatuv anketasi) "2019-yilda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini amalga oshirgan mikrofirma va kichik korxonalar kuzatuv anketasi" hamda ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, biznesni rivojlantirish statistikasi bo'yicha 1-kb kuzatuv "mikrofirma va kichik korxonaning faoliyatini kuzatish so'rovnomasi"; 2-kb kuzatuv "mikrofirma va kichik korxonaning faoliyatini kuzatish so'rovnomasi (kuzatuv yilida tashkil etilgan korxonalar uchun)"; 3-kb kuzatuv "mikrofirma va kichik korxonaning faoliyatini kuzatish so'rovnomasi (yillik davlat statistika ma'lumotlari bo'yicha mahsulotlar (ish va xizmatlar) sotishdan tushumga ega bo'lmagan korxonalar uchun)" davlat statistika hisoboti ma'lumotlaridan statistik axborotlar olinadi. Respublikamiz statistika kuzatuvlari biznes sohasi kesimida yuqoridagi shakllarda hisobotlarning taqdim etilishini taqozo etadi. Ko'p hollarda biznes subyektlarida statistik ma'lumotlarni shakllantirish ma'lum bir statistik infratuzilma, jumladan, biznes registri, ma'lumotlarning tasnifi va manbalari turlari va ma'lum statistik natijalar to'plamiga asoslanadi. Biznes subyektlarida statistika ma'lumotlarni shakllantirishdan maqsad statistika sifatini mukammallashtirish, ma'lumot umumlashtiruvchilar uchun xarajatlarni minimallashtirish va korxonalar uchun ma'muriy yukni kamaytirish va yakuniy foydalanuvchilarga qulayliklarni oshirishdan iboratdir. Bundan tashqari, davriylik, izchillik va taqqoslash kabi muhim sifat komponentlari mavjud. Optimallashtirish jarayoni o'z ichiga bir yoki bir necha komponentlarni olishi mumkin bo'lib, ko'pincha, muayyan kelishuvlarga ham asoslanadi. Hozirgi kunda biznes rivojlanish ko'rsatkichlari Yevropa hamjamiyatining iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NASE Rev.2) asoslangan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT2) bo'yicha shakllantirilmoqda. Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, yalpi ichki mahsulot tuzilmasidagi biznes ulushi ko'rsatkichlari yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan keltirilmoqda. Bunda YAIM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan .

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-sonli "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq xorijiy xalqaro tajribalar asosida 2020-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining №30 sonli "Kichik korxonalar va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy Nizom"ni tasdiqlash to'g'risida"gi Qaror qabul qilindi. Bunda Yevropa Ittifoqi statistika byurosi tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga asoslanib, biznes subyektlari jamlanmasi to'g'risida ilmiy asoslangan, haqqoniy statistik ma'lumotlarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Ushbu Qarorga muvofiq, tanlab olishda quyidagi asosiy rekvizitlardan foydalaniladi: soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, biznes tashkilotining asosiy kodi, faoliyat yuritayotgan biznes subyektining nomi va boshqalar.

Tadbirkorlik subyektlarida statistik ma'lumotlarni shakllantirishda qisman kuzatish shakli bo'lgan so'rovnoma usulidan foydalanish qulay. So'rovnomaning dizayni so'rovnomaning ishlab chiqish operatsion bosqichining bir turi sanaladi, chunki u so'rovnoma ma'lumot to'plash usuli sifatida tanlangandan so'ng amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tadqiqot maqsadlari nuqtayi nazaridan juda muhim. Yangi so'rovnomalarni tuzishda yoki mavjudlarini baholashda axborotga bo'lgan talab va mavjud ma'lumot o'rtasidagi bog'liqlik (mikroma'lumot bog'liqligini rivojlantirish) e'tiborga olinishi kerak.

Anketani tuzish jarayoni bilan bog'liq yana bir qancha o'ziga xos muammolar mavjud bo'lib, bunda elektron so'rovnomalarni tuzish, elektron so'rovnomalarni to'ldirish jarayonida korxonalar tomonidan xatoliklarni to'g'ridan to'g'ri aniqlash va ularni tahrirlash imkonini beruvchi funksiyalarning mavjudligi va so'rovnomalarni testdan o'tkazish muammosidir.

Tahrirlash imkonini beruvchi funksiyalarga to'xtaladigan bo'lsak, ular korxonalar tomonidan olinadigan sifatli ma'lumotlar, mikroma'lumotlarni tozalash uchun ajratilgan xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Biznesda statistik kuzatuvlar o'tkazishda, biznes registr so'rovnomaning statistik birliklar va boshqa tasniflar bo'yicha qayd etib boruvchi asosiy manbai hisoblanadi. Biznes registr ma'lumotlarni to'plovchi (hisobot taqdim etuvchi birliklar) hamda ma'lumotlarni tarqatuvchi (statistika organlari) birliklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Biznes subyektlarida zamonaviy statistik axborotlar tizimining shakllantirish kuzatuv subyekti ma'lumotlarni yetkazib berish davri, respondentlar turlari, kuzatuv byudjeti kabi omillarga bevosita bog'liqdir.

Biznes subyektlarida zamonaviy statistik axborotlar tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni to'plash yo'llari telefon orqali so'rovnoma elektron pochta va onlayn so'rovnomalarni o'tkazish, elektron ma'lumotlar almashinuvi kabi usullarda mavjud muammolarni yechishga olib keladi.

Respublika va hududlarda biznes rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy holatining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida Davlat statistika dasturlari ishlab chiqiladi. Davlat statistika dasturlariga muvofiq har yili Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan turli davriylik hamda sohalaridagi statistika hisoboti shakllari asosida statistik ma'lumotlar shakllantiriladi.

Hozirgi kunda korxonalar, tashkilotlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarni statistik kuzatuv bilan to'liq qamrovini ta'minlash maqsadida joriy yilda statistika hisoboti shakllarining umumiy soni 150 dan ortiqni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud

resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"- gi 2020-yil 1-maydagi PQ-4700-sonli Qaroriga asosan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish reyting baholash tizimi joriy etilgan edi.

Shunga muvofiq, mamlakatimiz tarixida birinchi marta respublikamiz tuman va shaharlari iqtisodiy ko'rsatkichlari, biznesni qo'llab-quvvatlash muhiti, infratuzilma va mavjud resurslardan foydalanish darajasi o'rganildi. Statistik kuzatish va tahlillar asosida joylardagi biznes rivoji holati 3 xil: "yaxshi", "o'rta", "qoniqarsiz" hududlarga ajratildi. Xususan, 48 ta tuman va shaharlardagi holat "yaxshi", 119 tasida "o'rta" hamda 33 tasida "qoniqarsiz" deb topilgan. Ushbu statistik tahlil va baholash orqali "qoniqarsiz" deb baholangan tuman va shaharlarning salohiyatini oshirish, "yaxshi" hududlarning tajribasini keng ommaga yoyish muhim sanaladi. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2025-yilning 9 oylik statistik ma'lumotlariga qaraganda, Samarqand viloyatining Samarqand tumanida hududiy mahsulotlari hajmi 1,1 trillion so'mni tashkil etib, aholi jon boshiga bu ko'rsatkich 4,5 million so'mdan to'g'ri keladi. Shuningdek, 508 ta biznes subyektlari tashkil etilib, 71 foiz yangi yaratilgan ish o'rinlarining biznes sohasiga to'g'ri keladi. Bu esa Samarqand viloyati uchun juda yaxshi ko'rsatkich sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosamiz shundan iboratki, yuqorida autsorsing tashkil etish va boshqarish mexanizmi korxonaning turli xil xizmatlarga ta'sirini baholash uchun uni o'zgartirish va xizmatlar turini yangilash imkoniyatlariga asoslangan deb hisoblash kerak. Shunday qilib, autsorsing muhitida biznes-jarayonlarning asosi yanada samarali tarzda tashkil etilishni anglatadi. Autsorsing xizmatlari asosiy ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaxshilash uchun korxonalarini qayta tashkil etishda qo'llaniladi. Bu esa korxonaga yangi imkoniyatlarni paydo qilib, raqobatbardoshlik mavqeyini mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 International PF-4947 "On Action Strategy for Further Development of Uzbekistan".
2. Saidova M.X. "Business and development of business and its development in the country", Economics and Innovative Technologies №1. – Tu, January-February 2017.
3. [http://www.doingbusiness.org/~media/WBG/DoingBusiness/Documents/ Annual-Reports/English/ Doing Business 2020: Reforms Propel Uzbekistan to Place Among World's Top 20 Business Climate Improvers.pdf](http://www.doingbusiness.org/~media/WBG/DoingBusiness/Documents/Annual-Reports/English/Doing-Business-2020-Reforms-Propel-Uzbekistan-to-Place-Among-World's-Top-20-Business-Climate-Improvers.pdf).
4. Saidova M.X. The granted opportunities for promotion business and their results in Uzbekistan // "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. 2017. -№2 - 1-10 б. (08.00.00; №19).
5. Saidova M.X. Embeddedness and growth of business in Uzbekistan // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. 2019. – Vol.71, Issue 03. – PP. 441-447. (GIF-0.56, SJIF-5.667).